



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATINI BADIY PEDAGOGIK ADABIYOTLAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sultonova O‘g‘ilxon Sobirjonovna

Qo‘qon davlat universiteti 2-kurs tayanch doktranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini badiiy-pedagogik adabiyotlar vositasida shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatidagi mazmun-mohiyati yoritilgan. Badiiy-pedagogik asarlarning bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy qadriyatlar, pedagogik axloq, kasbiy mas‘uliyat, empatiya, muloqot madaniyati va pedagogik tafakkurni rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, badiiy adabiyot vositasida pedagogik faoliyatga oid hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, kasbiy xulq-atvor me‘yorlarini anglash va o‘z-o‘zini refleksiv baholashning pedagogik ahamiyati asoslangan. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda badiiy-pedagogik adabiyotlardan samarali foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy madaniyat, badiiy-pedagogik adabiyotlar, ijtimoiy-pedagogik muammo, kasbiy qadriyatlar.

Jamiyatda aholining kasbiy ongi va madaniyati darajasining yuksakligi demokratik davlat hamda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasini Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gifarmonida fuqarolarning kasbiy ongini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur jarayonda ta’lim tizimining, jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy va pedagogik adabiyotlar orqali g‘oya va qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ularda tafakkurni rivojlantirish hamda fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash imkoniyati kengayadi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda ongning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida kasbiy madaniyat darajasi qabul qilingan qonun, farmon va farmoyishlar soni bilan emas, balki ularning amaliyotda qanday ro‘yobga chiqarilishi bilan belgilanadi. Ayniqsa, badiiy pedagogik adabiyotlar vositasida bo‘lajak mutaxassislarda normativ hujjatlarga nisbatan ongli munosabat, hurmat va mas‘uliyat hissini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy obrazlar, hayotiy voqealar va tarbiyaviy g‘oyalar orqali



talabalarda nafaqat bilim, balki kasbiy qadriyatlar, ichki e'tiqod va madaniy yondashuv rivojlanadi. Shu bois, ta'lim jarayonida badiiy adabiyotlardan samarali foydalanish orqali talabalarining kasbiy madaniyatini yuksaltirish, ularni jamiyatda faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Talabalarining kasbiy madaniyatini yuksaltirish chinakam demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, shaxs yuqori darajadagi bilimga ega bo'lishi mumkin, biroq unda kasbiy madaniyat yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, u o'zining jamiyat va Vatan oldidagi burch hamda mas'uliyatini chuqur anglamasligi ehtimoldan xoli emas. Ayniqsa talabalarda kasbiy madaniyatni yuksaltirish, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim shartlaridan biri sanaladi. Bu jarayonda badiiy pedagogik adabiyotlar vositasida insoniy fazilatlar, ijtimoiy qadriyatlar va kasbiy mas'uliyatni singdirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bilamizki, qadimgi Yunonistonda madaniyat masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu jihat eng avvalo Platonning falsafiy qarashlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Platonning ta'lim va madaniyat haqidagi konsepsiyasi jamiyatning ideal tartibini ta'minlash va shaxsning ma'naviy kamolotini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uning falsafiy tizimida "paideia" atamasi markaziy o'rin tutadi. "Paideia" nafaqat bilim olish jarayoni, balki axloqiy fazilatlarni shakllantirish, estetik didni rivojlantirish, ruhiy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlash orqali shaxsning to'liq kamol topishiga xizmat qiladi. Platon fikricha, shaxsning madaniy va ma'naviy rivojlanishi jamiyatning barqarorligi va adolatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Platonning qarashlari nafaqat qadimgi Yunon madaniyati kontekstida, balki zamonaviy ta'lim va kasbiy madaniyatni rivojlantirish masalalarida ham muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Aristotel "Nikomax axloqi"da ta'limni shaxsning aql va ruhini shakllantiradigan jarayon sifatida tasvirlaydi. Madaniyat — bu shaxsning yagona bilim to'plami emas, balki axloqiy xulqni odatga aylantirish jarayoni. Ta'lim — bu insonning miyasi va yuragini birdek tarbiyalovchi jarayon, chunki haqiqiy bilim axloqsiz bo'lishi mumkin emas. Davlat va ta'lim tizimi bir-birini to'ldiradi: jamiyat madaniyati fuqarolarning tarbiyasi orqali mustahkamlanadi. Axloqiy fazilatlar — jasorat, adolat, me'yorlik kabi sifatlar — insonning tabiatida tug'ma mavjud bo'lmaydi, balki ular harakat orqali odat shaklida hosil bo'ladi ya'ni "biz adolatli harakatlarni bajarish orqali adolatli bo'lamiz, temperantlik harakatlarini bajarish orqali temperant bo'lamiz". Bizningcha, Aristotelning mazkur qarashlari madaniyatni shaxs tomonidan tayyor bilimlar majmuasi sifatida emas, balki qadriyatlarni anglash, ularni amaliy faoliyatda



qo'llash va ijobiy xulq-atvorni barqaror odatga aylantirish jarayoni sifatida tushunishga imkon beradi. Bunda ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmaydi: bilim insonning tafakkurini rivojlantirsa, axloqiy tarbiya uning xatti-harakatlarini ijtimoiy va ma'naviy jihatdan yo'naltiradi.

Konfutsiy o'z falsafiy qarashlarida jamiyat boshqaruvida ahloqiy qoidalar va xalq an'alariga tayangan holda, qonunlar orqali boshqarishni inkor etadi. U qadimiy urf-odatlar va boshqaruv an'alarini tiklash tarafdori bo'lib, jamiyatning barqarorligi va shaxslarning ma'naviy kamoloti shu tartiblar orqali ta'minlanishiga urg'u beradi. Konfutsiy nazariyasida "dao" — "osmon hukmini ado etishda oliyanob kishi yuradigan yo'l va "li" — "jamiyatda boshqaruv, urf-odatlar va narsalar tartibi, ezgu xulq-atvor qoidalari va amallarni bajarish yo'llari" tushunchalari jamiyatni boshqarish vositalari sifatida qaraydi. Konfutsiy ta'limni shaxsning ichki madaniyati, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish orqali haqiqiy madaniyat va ta'lim shaxsni nafaqat bilimli, balki ijtimoiy va axloqiy jihatdan yetuk shaxsga aylantiradi deb hisoblaydi.

O'rta Osiyo va Eron hududlarining mil.avv. XIII-XII asrlarda jamiyatni tartibga solish vositalari haqidagi muhim ma'lumotlarni beruvchi manba sifatida zardushtiylik dini muqaddas kitobi "Avesto" hisoblanadi. Zardushtiylik ta'limotida inson huquqlariga oid qarashlar asosi rostgo'ylik va adolat tamoyillariga, uchlikka tayangan bo'lib, bu umumiy xulq-atvor va huquqiy xatti-harakatlarning namoyon bo'lishini ifodalaydi. Adabiyotlarni nazariy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqining milliy, ma'naviy-madaniy merosida shaxs, fuqarolik, madaniyat, mas'uliyat, huquq kabi tushunchalar falsafiy-pedagogik jihatdan poydevoriga ega. Falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslikda ko'pchilik olimlar madaniyatni ikki o'lchovga ega deb hisoblaydilar: jismoniy va ruhiy. Jismoniy madaniyatga inson mehnati bilan yaratilgan material narsalar kiradi: ish qurollari, kitoblar, zargarlik buyumlari va boshqa buyumlar. Ruhiy yoki ma'naviy madaniyat esa qoidalar, naqshlar, odob-axloq me'yorlari, qonunlar, qadriyatlar, ramzlar, bilimlar, g'oyalar, urf-odatlar, an'alar va til orqali shakllanadi.

Sharq falsafa fanining asoschilaridan biri, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", "Aql ma'nolari haqida risola", "Kitobi axloq", "Baxt-saodatga erishish haqida", "Shaharlarni boshqarish", "Platon qonunlari haqidagi kitob to'plami" kabi asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga oid qarashlari pedagogika nuqtai nazaridan asoslangan. Unga ko'ra, jismonan va ma'naviy-axloqiy yetuk, barqaror shaxs, axloqiy, aql-idrok va estetik xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga, shunday kamolot orqali kishini fozil inson deb atash mumkin. Shu sababli olima komil shaxsni tarbiyalashda uning kelajagi, baxt-saodati, ta'lim-tarbiya jarayoni, huquqiy-axloqiy qiyofasi, e'tiqodi, Vatanga sadoqati,



ota-ona mehr-muhabbati kabi fazilatlariga e'tibor qaratib, pedagogik ta'sir usullaridan — pando nasihat, rivoyat, maqol va o'xshash metodlar orqali shakllantiradi.

Alisher Navoiy o'zining "Maxbub-ul-qulub" asarida shaxsning ma'naviy va madaniy kamoloti, axloqiy fazilatlar va ta'lim-tarbiya jarayoni masalalariga katta e'tibor qaratadi. U shaxsni faqat ilmiy bilim bilan emas, balki axloqiy, estetik va ruhiy jihatdan yetuk bo'lishi bilan kamol topadi deb hisoblaydi. insonning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatini uyg'unlashtirish, farzand tarbiyasi, ota-ona va jamiyat bilan uyg'un munosabatlarni rivojlantirishni ta'limning ajralmas vazifasi sifatida ko'radi. Haqiqiy shaxs madaniy va ma'naviy qadriyatlarni qadrlaydi, adolatli, rostgo'y, sabr-toqatli va Vatanga sadoqatli bo'ladi deb hisoblaydi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasini Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari to'plami. <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>
2. Диярова Ш.Р. Талабаларда ҳукукий маданиятни ривожлантириш майдони // Интернаука - Научный журнал М., – №19(148) Май – 2020, Часть 4. – С 78-80.
3. Aristotel. Nikomax axloqi // tarj. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. II jild. 1-bob. – B. 47
4. История древнего Востока. От ранних государственных образований до древних империй. - М.: Восточная литература РАН, 2004. – С.86
5. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik // Asqar Mahkam tarjimasi. — Toshkent: Sharq nashriyoti. 2001. – B. 47